



Boshlang'ich Sinflarda Tabiiy Fanlarni O'qitishda Innovatsion Yondashuvga Oid Dolzarb Masalalar

Juraqulova Sharofat Baxtiyorovna

magistrant

O'zbekiston-Filandiya Pedagogika Instituti

@mail: sharofatjuraqulova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik madaniyat, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ilmiy dunyoqarash hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Maqolada innovatsion metodlardan foydalanishning o'quvchilarning faolligini oshirishdagi o'rni, tabiiy jarayonlar va hodisalarni tushunishdagi yordami, shuningdek, o'quvchida kuzatish, taxlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: innovatsion yondashuv, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ekologik tarbiya, ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikmalar

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно анализируются теоретические основы и практическое значение применения инновационного подхода в преподавании естественных наук в начальных классах. Обоснована необходимость внедрения современных педагогических технологий в образовательный процесс для формирования у учащихся сознательного отношения к природе, экологической культуры, самостоятельного и критического мышления, научного мировоззрения и практических навыков. В статье раскрывается роль инновационных методов в повышении активности учащихся, помощи в понимании природных процессов и явлений, а также в развитии навыков наблюдения, анализа и умения делать выводы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: инновационный подход, начальное образование, естественные науки, современные педагогические технологии, экологическое воспитание, научное мировоззрение, самостоятельное мышление, практические навыки.

ABSTRACT: This article provides a detailed analysis of the theoretical foundations and practical significance of applying an innovative approach to teaching natural sciences in primary education. It substantiates the necessity of integrating modern pedagogical technologies into the educational process to develop students' conscious attitude toward nature, ecological awareness, independent and critical thinking, scientific worldview, and practical skills. The article highlights the role of innovative teaching methods in increasing student engagement, enhancing understanding of natural processes and phenomena, and developing observation, analytical thinking, and reasoning abilities. Special emphasis is placed on project-based learning, interactive lessons, observation, experimentation, and the use of technological tools to improve teaching effectiveness.

KEYWORDS: innovative approach, primary education, natural sciences, modern pedagogical technologies, environmental education, scientific worldview, independent thinking, practical skills.

KIRISH

Bugungi kunda innovatsiyalarni turli sohalarga tatbiq etish jarayoni tezlashmoqda. Shuning uchun ham innovatsiyalarning shaxs ijtimoiy takomiliga ta'sir etadigan jihatlarini tatbiq etish ijtimoiy fanlar tizimidagi muhim vazifadir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida: "Innovatsiya (ing. Innovation-kiritilgan yangilik ixtiro)- 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy – texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoalangan



texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli va faoliyat doiralarida qo'llanilishi"[Aminov M, Daminov T. va boshqalar. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: Davlat milliy nashriyoti. 2002.- B 169], deb izohlangan.

Ta'lim tizimi, shaxsni shakllantirishi uchun, davlat standarti talablari asosida hamda jahon ta'lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo, o'qituvchilar, murabbiylar shaxsni har tomonlama mukammal bo'lishni talab qiladi.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiat to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirish kerak. O'quvchilar vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. bunda bolalarga odamlar mehnati tabiat atrof bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir.

Shu talablarga ko'ra kichik yoshdagi o'quvchilarga:

-o'zaro bog'liqligi ochib berilgan jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish;

- odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'grisida m'lumotlar berish;

-tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish kerak.

Umumta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq tabiiy fan dasturiga kiritilgan o'zgarishlar, ko'rsatilgan vazifalar, tabiiy fan kursida o'quvchilarning ekologiya, mehnat va gigiyena tarbiyasiga e'tibor yanada kuchaytirishni nazarda tutadi. Tabiiy fanni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga muruvvatli munosabatni, vatanparvarlikni va go'zallikni tushunishni tarbiyalash kerak.

Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri uning mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun ham Tabiiy fanni o'qitish o'quvchiga o'quvchilar tafakkurini, ularning ijodiy va bilish faolligini rivojlantirish uchun boy material beradi. Tabiiy fan bo'yicha barcha mavzular kompleks tarbiya masalalarini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

M. Aminov va T. Daminov tomonidan "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da berilgan izohga ko'ra, innovatsiya bu – texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish sohalaridagi yangiliklarni anglatadi va ularning faoliyatga tatbiq etilishi orqali natijadorlikka erishish ko'zda tutiladi (Aminov M., Daminov T. va boshqalar. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T.: Davlat milliy nashriyoti, 2002. –B. 169).

Sh. Mirziyoyevning ta'lim va yoshlar tarbiyasi borasidagi siyosiy qarashlarida ham innovatsiyalarning jamiyat va shaxs kamolotidagi o'rni alohida ta'kidlangan. U o'zining asarlarida yoshlarning yuksak intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim usullarining ahamiyatini uqtiradi (Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –B. 14).

D. P. Xodiyeva tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarda esa mehnat darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu metodlarning boshlang'ich ta'limga moslashtirilishi katta ijobiy samara berishi mumkinligi ta'kidlanadi (Xodiyeva D.P. Mehnat darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Pedagogical cooperation in the system of continuous education: xalqaro konferensiya materiallari to'plami. –T.: TDPU, 2016. –B. 227).

V. A. Slastenin va boshqa rus pedagoglarining izlanishlarida innovatsion ta'lim sharoitida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish metodikasi keng yoritilgan. Bu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatuvchanlik, tajribaviy faoliyat va analitik fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi (Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika: darslik. –M.: Akademiya, 2002. –B. 213–215).

So'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarda ham tabiiy fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalar, STEAM yondashuvi, loyiha asosida o'qitish va interfaol metodlarning



samaradorligi ilmiy asosda isbotlangan. Bu usullar o'quvchilarning chuqur bilim olishi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni innovatsion yondashuv asosida o'qitish masalasi – Nazariy, Empirik va Rivojlantiruvchi metodologik asoslar negizida olib borildi.

Nazariy asoslar

Tadqiqotning nazariy negizini innovatsion ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim metodikasi, bolalar psixologiyasi va ekologik tarbiya bo'yicha ilg'or ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Empirik asoslar

Tadqiqotda empirik metodlardan – kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, dars tahlili, taqqoslash va pedagogik tajriba usullari qo'llanildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy tajribalari o'rganildi, tabiiy fan darslarida qo'llanilayotgan innovatsion metodlarning real samaradorligi kuzatildi. Shuningdek, darslarda o'quvchilarning ishtirok faolligi, bilim darajasi va ekologik ong shakllanishining dinamikasi kuzatildi va tahlil qilindi.

Rivojlantiruvchi asos

Tadqiqot natijalariga tayanib, tabiiy fanlarni innovatsion yondashuv asosida o'qitishning yangi metodik modelini ishlab chiqish taklif etildi. Innovatsion metodlarning ta'limdagi ahamiyati haqida Raxmatullayeva S. shunday fikr bildiradi: “ Xolistik yondashuv asosida tabiiy fanlarni o'qitish, o'quvchilarning tabiat hodisalarini yaxlit anglashiga xizmat qiladi. Bu usulning samaradorligi boshlang'ich sinflarda ayniqsa seziladi” [Raxmatullayeva S.S. “ Xolisik yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ta'lim va tarbiya. 2023. -№4. –B. 12-19].

Ushbu model asosida tajriba-sinov darslari tashkil etildi, interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, loyiha, rolli o'yinlar, STEAM yondashuvi) va zamonaviy vositalardan (multimedia, animatsion ko'rgazmalar, tajriba uskunalari) foydalanildi. Eksperiment natijalari o'quvchilarning bilim darajasi, tahlil qilish, mustaqil fikrlash va tabiatga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada ijobiy o'zgartirganini ko'rsatdi.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlar o'quvchilarning bilimlarni chuqur va qiziqarli o'zlashtirishiga yordam beradi. “ T-chizma, FSMU, klaster kabi interfaol metodlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi va mavzuni chuqur anglashga yordam beradi” [Sattorov A.P., Raxmatova M.I., Fattoyeva O. A. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Pedagogika va psixologiya. 2025.- №1. –B. 45].

Shu bilan birga, pedagoglarning innovatsiyalarni qo'llashdagi malakasi va maktab infratuzilmasi sifatini yaxshilash dolzarb masala sifatida qolmoqda. Samadova bu borada shunday fikr bildirgan: “ Zamonaviy pedagogic yondashuvlar orqali o'quvchilarda ilmiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin” [Samadova G.S. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning o'qitish metodikasi. Ilmiy izlanishlar. 2024. .- №3.-B. 56].

Takliflar:

1. Pedagoglar uchun innovatsion o'qitish metodlari bo'yicha muntazam trening va seminarlar tashkil etilishi kerak.
 2. Maktablarda zamonaviy texnologiyalar va ta'lim vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish lozim.
 3. Tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi interfaol o'quv uslublarini joriy etish tavsiya etiladi.
 4. Ota-onalar va jamiyatni tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsiyalar ahamiyati haqida xabardor qilish bo'yicha ishlar kuchaytirilishi kerak.
- Ushbu takliflar amalga oshirilganda, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'lishiga erishiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aminov M., Daminov T. va boshqalar. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T.: Davlat milliy nashriyoti, 2002. –B. 169
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –B. 14
3. Xodiyeva D.P. Mehnat darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Pedagogical cooperation in the system of continuous education: xalqaro konferensiya materiallari to'plami. –T.: TDPU, 2016. –B. 227
4. Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika: darslik. –M.: Akademiya, 2002. –B. 213–215
5. Raxmatullayeva S.S. “ Xolisik yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ta'lim va tarbiya. 2023. -№4. –B. 12-19
6. Sattorov A.P., Raxmatova M.I., Fattoyeva O. A. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Pedagogika va psixologiya. 2025.- №1. –B. 45
7. Gulbayeva N.G. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini o'qitish va uning ahamiyati. Zamonaviy ta'lim muammolari. 2024.- №2.-B. 23
8. Samadova G.S. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarning o'qitish metodikasi. Ilmiy izlanishlar. 2024. - №3.-B. 56
9. Ganiyeva M.B. Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda innovatsion metodikalar. Innovatsion pedagogika. 2023. -№5. –B. 78
10. Bobomurotov S.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi. Pedagogik texnologiyalar. 2023. -№7. –B.90